

Chorvachilik va texnologiyalar fakulteti "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasining dotsenti B.Mavlonovning **"Dukkakli yem-xashak o'tlar ahamiyati. O'simliklarni parvarish qilish"** mavzusidagi ochiq ma'ruza darsi matni, taqdimotiga

### TAQRIZ

60810800- Zootexnologiya ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabalariga "Dukkakli yem-xashak o'tlar ahamiyati. O'simliklarni parvarish qilish" mavzusidagi ochiq darsi ma'ruza matni, taqdimoti o'tish uchun qo'yiladigan talablarga mos ravishda tayyorlangan.


So'nggi yillarda ochiq dars (master klass) o'tish rejasida talabalarga mavzuni o'tishda, yangi pedagogik va innovasion texnologiyalar asosida texnik vositalardan foydalanilgan holda axborotli, muammoli, interfaol uslubda mavzuning yoritilishi talab qilinmoqda. Mazkur ochiq darsni o'tishga tayyorgarlik jarayonida qo'yilgan talablarning hammasi bajarilgan.

Ochiq dars rejasida yangi ma'ruzani boshlashdan oldin, o'tgan mavzu bo'yicha blis so'rovlar o'tkazish, hamda o'tilgan darsga yakun yasash, yangi o'tiladigan mavzuni e'lon qilib doskaga yozish, taqdimotda ko'rsatish hamda ketma-ketlik bo'yicha dars to'g'ri tashkil etilganligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar mavjud.

Dotsent B. Mavlonov tayyorlagan matnda yangi mavzuni bayon qilishda ma'ruza rejasi, foydalanilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, tayanch iboralar taqdimotda talabalarga havola qilinishi, mavzuni yoritish davomida BBB, baliq skeleti, "T" organayzer uslublaridan foydalanish, "T" uslubi bo'yicha keysdagi muammolar dolzarbligi bo'yicha savollar va ularni yechimi talabalar ishtirokida topilishi, dars oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarini bajarilish holati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur ma'ruzani o'tishda, talabalarga mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlar, test savollari bo'ladigan matnlarni, kreativlikni rag'batlantiradigan, mustaqil fikrlashga o'rgatadigan pedagogik uslublarni dars davomida bayon qilishda yoritish rejalashtirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dotsent B.Mavlonovning 60810800- Zootexnologiya ta'lim yo'nalishlari 2 bosqich talabalariga "Dukkakli yem-xashak o'tlar ahamiyati. O'simliklarni parvarish qilish" mavzusidagi ochiq darsi ma'ruza matni, taqdimoti, zamonaviy ta'lim tizimi ochiq darslarga qo'yadigan talablarga javob beradi deb hisoblayman.



**SamDVMCHBU, "Biotexnologiya kafedrasi mudiri q.x.f.n, dotsent**

